

PAPER

4K MODELI ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Ne'matjonova Yulduz O'tkirovna^{1,*} and Xamrokulova Maxliyo Utkurovna²

¹Samarqand Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent

²Samarqand Davlat Pedagogika Instituti, Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 108-guruh talabasi

* nematjonova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada 4K modeli kompetensiyalari: kritik fikrlash, kommunikatsiya, kreativ fikrlash, koloboratsiya haqida va shu model orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish haqida yoritilgan.

Key words: Boshlang'ich ta'lim, "4K modeli", kritik fikrlash, kommunikatsiya, kreativ fikrlash, koloboratsiya.

Hozirgi globallashuv jarayonida tanqidiy fikrlash har bir inson uchun muhim bo'lib, bu orqali ma'lumotlar oqimida rost va yolg'on ma'lumotlarni ajratib olish, ulardan mantiqiy xulosa chiqarish va berilgan masalalarga turli nuqtai nazardan qarashga ko'maklashadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K modeli (kreativlik, kritika, kommunikatsiya, kollobortasiya) orqali tanqidiy fikrlashning dastlabki bosqichi shakllanadi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'lumotlarni tahlil qilishni, savol berishni, turli fikrlarni muhokama qilishni hamda guruhlarda ishlashni boshlang'ich sinf o'qituvchisi yordamida o'gana 4K modeliga asoslangan boshlang'ich sinf yangi

darsliklar tuzilgan va amaliyotga taqbiq etilgan. 4K modeli o'z ichiga ushbu ko'nikmalarni mujassam etgan. 2023–2024 o'quv yilidan boshlab darsliklarni isloh qilish munosabati bilan 4k modeli asosidagi darsliklar yuzaga keldi [1]. 4K modeli 4 asosiy kompetensiyadan tashkil topgan: 1) Kommunikatsiya – bu ko'nikma orqali fikrlarini erkin ifoda eta oladi, diqqat bilan tinglaydi va o'zini qiziqtirgan, tushunmay qolgan jihatlariga oid savollar beradi, atrofdagilar bilan muloqot qiladi, o'z fikr va mulohazalariga o'zgalarni ishontira oladi [2]. Muloqot madaniyati, muloqot qila olish ko'nikmasi har bir shaxs uchun muhim bo'lgan komponent hisoblandi. Inson tug'ilibdiki muloqot qila olish

Compiled on: January 17, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

qobiliyatiga ega bo'lib boradi [3]. Chunki, muloqot qilish bu ehtiyoj hisoblanadi. kommunikativlik – darsliklar o'quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadilar [4]. Kommunikatsiya fikr va g'oyalarni yoki loyihani dars jarayonida taqdim etish, kelajakda muhim muzokaralar, tadbirlar paytida o'z iste'dodini malakali shaklda ko'rsata olish uchun zarurdir [5,6]. Kommunikativlik (ritorika) ko'pincha notiqlik sifatida tavsiflanadi, lekin aslida notiqlik ulkan aysbergning ko,'rinadigan bir qismi xolos. Uning yashirin, chuqur qismi "Nimani gapirish kerak?", "Kimga gapirish kerak?", "Qachon va qanday gapirish kerak?" kabi savollarga javob beradi. Shundan keyingina chiroyli gapirish vazifasi paydo bo'ladi va u kritik fikrlash, kreativ fikrlash va kollaboratsiya mahoratlarining bog'lovchi bo'g'ini hisoblanadi [7,8]. 2) Kreativ fikrlash ko'nikmasini ijodiy fikrlash deb ham yuritishimiz mumkin. O'zbekiston Respubikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "O'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur", deya ta'kidlaydi. Darhaqiqat, ushbu ko'nikmalarni shakllantirish davr talabiga aylanmoqda [9]. Kreativlik bu ijodiy yondashuv aynan 4K modelida fikrlashning kreativligiga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu ko,'nikmani shakllantirishga oid bir qancha topshiriqlar mavjud [10]. Kreativ fikrlash – darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo,'llashni o'rganadilar, innovatsion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar [11]. Kreativlik (Ijodkorlik) ko'nikmasi: • qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o'rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o'z savollariga javob topish qobiliyati [12]; • tasavvur – ko'plab original va nostandart g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati; • optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati; • g'oyalarni rivojlantirish – g'oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va

zaif tomonlarini izlash, o'zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishida o'z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati [13, 14]. 3) Kritik fikrlash ko,'nikmasini tanqidiy fikrlash deb yuritishimiz mumkin. Tanqidiy fikrlash orqali axborotlarni monipulyatsiyadan ajrata olishimiz. Dunyo soat sayin emas balki soniyalarda o'zgarmoqda. Bizga kirib kelayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli xil g'oyalar ichidan o'zimizga manfaatlisini ajratib olishimiz zarur. Tanqidiy fikrlash sodda qilib aytganda biror predmetga, voqea, hodisaga boshqa rakusdan qarash hisoblanadi. kritik (tanqidiy) fikrlash – ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga analitik nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradilar [15, 16]. Tanqidiy fikrlash: • tahlil – topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati; • baholash – kirish va chiqish ma'lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati; • tushuntirish – o,'z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog'liq izchil matnlar qurish; • maqsadlarni belgilash – erishish mumkin bo,'lgan maqsadlarni to'g'ri shakllantirish, zarur ma'lumotlarni va uning yetarililigini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati; • o'zini boshqara bilish – o'z-o'zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya); • modellashtirish – amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun vaziyatni mavhum modeli bilan almashtirish qobiliyati; • o'rganilayotgan predmetga turli nuqtayi nazardan qarash amaliyoti; • kuzatish va o'lchovlarni rejalashtirish va amalga oshirish amaliyoti; • muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish; • dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati; • strategik fikrlash [17, 18]. 4) Kollaboratsiya – bu jamoa bilan ishlash hisoblanadi. Jamoaviy ishlar har bir o'quvchida muoqot ko'nikmasini yaxshilaydi. O'quvchilar orasida do'stlik, hamkorlik, bir birini tinglash kabi ko'nikmalarni shakllantiradi [19, 20]. Kollaboratsiya – darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga

hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi [21, 22]. Jamoaviy ishlash ko'nikmasi: • umumiy maqsadlarni o'z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo'nalishini qurish qobiliyati; • ijtimoiy o'zaro ta'sir, ya'ni umumiy maqsadlarni muvofiqlashtirish [23]; • o'z reja va g'oyalarini amalga oshirish uchun yetakchilik ko'nikmalarini va o'z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish; • o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish; • mustaqillik va avtonomiya va tashabbuskorlik [24, 25]. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish hayotiy jarayonlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikrini emin erkin bayon eta bilish, eshitgan materialini idrok etish, shuningdek, voqea hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasini nazarda tutadi [26, 27]. Tanqidiy fikrlashini shakllantirish insonning borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarashini boyitish, tafakkurini o'stirish ko'zda tutiladi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti [28, 29]. 4K modelining afzalliklaridan yana biri, u umuman shart-sharoit talab qilmaydi. Savol-javob, amaliy ko'nikmalar kabilarni o'zida mujassam qiladi. Bu ko'nikmalarga asoslangan topshiriqlar o'quvchilar uchun deyarli murakkablik qilmaydi. Darslarni bema'lol qo'shimcha vositalarsiz amalga oshirish mumkin.[30] Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash, o'z fikrini bildirish hali rivojlanmagan bo'ladi. 4K modeli orqali fikrini bildirishi, sinfdoshlarining shaxsiy fikrlarini hurmat qilishi va berilgan ma'lumotlardan kerakli va keraksiz bo'lganlarini ajratib olish orqali tanqidiy fikrlashi rivojlanib boradi.

References

1. Karomatova D.S., Tolliyeva G.R., Qilichova M.J. O'quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida// "Образование и наука в XXI веке" Международный научно- образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – В.956-962.
2. Караматова Д.С. Синфдан ташқари машғулотлар орқали ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш методлари. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2021. 1(2), 4-9.
3. Karomatova D.S., Qilichova, M. Pedagogning kasbiy kompetentligi va uni amaliyotda qo'llay olish mahorati // Science and innovation. 2022, 1(B7), 764-768.
4. Караматова Д.С. Педагогическая технология развития экологической культуры будущих учителей начального класса // American Journal Of Education And Learning, 2025. 3(1), 1-17.
5. Karomatova D.S., Zamonaviy ekologik ta'limda bolalarning tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan mas' uliyatli munosabatlarini shakllantirish imkoniyatlari // Miasto Przyszłości. 2022, 29, 194-196.
6. Karomatova D.S., Qilichova M.J. Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan ishlash metodikalari // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2022, 1(4), 11-15. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7248826>
7. Karomatova D.S., Murodova M.M. Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifatini oshirishda texnik vositalardan samarali foydalanish // Science and innovation. 2022, 1(B2), 152-154. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6588444>
8. Karomatova D.S., Abduvaliyeva S. (2022). Bola ta'lim-tarbiyasida ota- onaning tutgan o'rni. Science and innovation, 1(B7), 67-72.
9. Salaeva M.S., Umirova X.S. Bola tarbiyasida oila va maktabning o'zaro hamkorligi // Problems And Scientific Solutions. - Australia, Melbourne. 2022. – B. 114-123. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6762226>
10. Salaeva M.S., Urazova K.V. Boshlang'ich ta'limda o'quv faoliyatning kichik maktab

- yoshidagi o'quvchilar psixik rivojlanishiga ta'siri / «Білім беру қызметі: инновациялық әдістер, құралдар және тәсілдер» тақырыбындағы халықаралық форум материалдары – Шымкент: «Қызмет» баспаханасы, 2022. – В.432-441. ISBN 978-601-06-8694-6
11. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051 Volume 2 Issue 4, April 2022. Pages 136-139. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6511330> 1088AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING ISSN: 2996-5128 (online) | ResearchBib (IF) = 9.918 IMPACT FACTOR Volume-3| Issue-3| 2025 Published: |30-03-2025|
 12. Салаева М.С., Халилова Ш.Т. Ўспиринларда креатив фикрлашни ривожлантиришнинг психологик жиҳатлари / “Психологияни ўқитишда замонавий инновацион ёндашув: психологлар фаолиятини ташкил этишда илғор технологиялар” номли Республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. Низомий номидаги ТДПУ “Психология” ўқув-илмий маркази. 2019 йил 24 декабрь. – Б.13-16.
 13. Салаева М.С. Представление проблемной ситуации в виде задачи как психологическое средство мышление в младшем школьном возрасте / «Boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – Urganch: 2011 yil 11 aprel. – В. 90-92.
 14. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // Scientific progress. Volume 3 ISSUE 3 2022. -Pages 384-390. <http://www.scientificprogress.uz>
 15. Салаева М.С., Жуманова И.А. Психолого-педагогические условия самореализации младших школьников в правильном образовательном направлении // World of Scientific news in Science Journal Germany. Impact factor: 8.1 <https://worldofresearch.ru/index.php/wsjs/index>
 16. Салаева М.С., Жуманова И.А. Теоретические подходы к изучению проблемы развития саморегуляции младших школьников / Konferensiya- 2023-Dekabr. 1-qism. – В. 66-72. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10465296>
 17. Салаева М.С., Жуманова И.А. (2024). Саморегуляция младших школьников в правильном выборе образовательного направления // International journal of advanced research in education, technology and management (IJARETM). Published March 5, 2024 | Version v1. – Pp.37-46. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10781814>
 18. Салаева М.С., Бикетова Т.Р. Роль педагога в формировании представлений о профессиях у младших школьников // World of Scientific news in Science International Journal. 2024 Vol. 2 No. 4. – Pp. 154-162. <https://worldofresearch.ru>
 19. Салаева М.С., Ким Х.В. Формирование положительной мотивации у младших школьников к учебной деятельности// World of Scientific news in Science International Journal. 2024 Vol. 2 No. 4. – Pp. 147-153. <https://worldofresearch.ru>
 20. Салаева М.С., Иномжонов Г.И. Воздействие социально- психологических факторов на динамику детской агрессии в образовательной среде // Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi, 2023. 1(1), 5-12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7514740>
 21. Салаева М.С., Мамадалиева У.С. Развитие когнитивной мобильности учащихся в начальном образовании / “Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – В. 276-281.
 22. Салаева М.С., Павлова М.В. Арт-терапия как средство гармонизации и развития психики младших школьников/ «Заманагўй тәлим хәм тәрбия технологиялары:

- тажирийбелер, машқалалар ҳам перспективалар» атамасында Республикалық илмий-әмелий конференция материаллары топламы. Нөкис. 2022 ж. – Б.412-415.
23. Салаева М.С., Павлова М.В. Роль арттерапии в образовательном процессе // «Образование и наука в XXI веке» Международный научно-образовательный электронный журнал Выпуск №22 (том 5) (январь, 2022). – С.1099-1103. https://www.mpcareer.ru/_files
 24. Салаева М.С., Павлова М.В. Формирование позитивных эмоциональных состояний студентов средствами арттерапии / “Ta’lim tizimida innovatsiya, integratsiya va yangi texnologiyalar” mavzusidagi 1- Respublika ilmiy anjumani materiallari elektron to’plami. NamDU. 2022. – B.3-15.
 25. Salaeva M.S., Jumanova I.A. Innovative approach to developing research skills in primary school students. // American journal of education and learning. Vol.3, No.1. 2025: Impact Factor: 9.918. – Pp.595-600. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14708769>
 26. Salaeva M.S., Jihye Lee. Pedagogical conditions for the organization of educational cooperation of primary schoolchildren // American journal of education and learning. Vol. 3 No. 1 (2025): Impact Factor: 9.918. – Pp.583-594. <https://advancedscienti.com/index.php>
 27. Salayeva M.S., Koshnazarova M.A. Shaxs mobilligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida // Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024. 1(9), 16-25. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10457887>
 28. Salaeva M.S., Koshnazarova M.A., Abdukodirov G., Radjabova D.A. Professionalism of the Teacher as a Pedagogical Credo in the Age of Innovation // Specialusis Ugdyimas / Special Education. 2022 1(43). Pp. 10571 – 10576. <https://www.sumc.lt/index.php/se/article/view/1637>
 29. Salayeva M.S., Ergasheva G.M., Magdiyeva M.E., Shayunusova F.S. Scientific Aspects of Pedagogical Professionalism // Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology. ISSN: 1001-4055 Vol. 44 No. 6 (2023). – Pp.2264-2270. <https://propulsiontechjournal.com>
 30. Karamatova D.S., Nurullayeva R.B., 4K modeli asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning psixologik-pedagogik jihatlari // American journal of education and learning. Volume-3| Issue-3| 2025 Published: |30-03-2025| // <https://doi.org/10.5281/zenodo.15104305>